



FARG‘ONA VILOYATI FARG‘ONA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2024-yil 23-iyul

71-11-163-F/24

Farg‘ona tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 28 va 73-moddalariga asosan “ijro gov.uz” dasturi, tadbirkorlar uyi va xizmat uylarining internet tarmoqlari uchun, signalizatsiya-pult va qo‘riqlash xizmati xodimlari ish haqisi uchun, Koreya davlatidan va Navoiy viloyatidan kelgan delegatsiya vakillarini munosib kutib olishni ta‘minlash, shuningdek, tuman tadbirlariga tayyorlangan banner va boshqa xarajatlarni mablag‘ bilan ta‘minlash maqsadida:

1. Tuman hokimligining “ijro gov.uz” dasturi xarajatlari uchun 5,6 mln.so‘m, tadbirkorlar uyi va xizmat uylarining internet tarmoqlari xarajatlari uchun 3,6 mln.so‘m, signalizatsiya-pult va qo‘riqlash xizmati xodimlari ish haqi xarajatlari uchun 44,4 mln.so‘m, Koreya davlatidan va Navoiy viloyatidan kelgan delegatsiya vakillarini munosib kutib olishni ta‘minlash xarajatlari uchun 24,5 mln.so‘m, shuningdek, tuman tadbirlariga tayyorlangan banner va boshqa xarajatlarni mablag‘ bilan ta‘minlashga bog‘liq xarajatlar uchun 15,0 mln.so‘m, jami 93,1 (to‘qson uch mln. bir yuz ming) mln.so‘m miqdorida mablag‘ tuman mahalliy byudjetining 2024-yilgi zaxira jamg‘armasi hisobidan tuman hokimligiga ajratilsin.

2. Tuman hokimligi moliya bo‘limi (A.Yusupov)ga,ajratilgan mablag‘ bo‘yicha tuzilgan hokimlikning xarajatlar smetasini belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish, tuman g‘aznachilik bo‘linmasi (B.Sobirov)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisiga, ajratilgan mablag‘ni maqsadli va samarali foydalanilishini ta‘minlash vazifasi yuklatilsin.

4. Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish vazifasi tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Abduraximov zimmasiga yuklatilsin.

**Farg‘ona tuman
hokimi**



**INOMOV
XAMIDULLO.TADJIYEVICH**